

San'atshunoslik va pedagogika fakulteti tyutori L.A.Kamilova o'ziga biriktirilgan guruh talabalarini bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida 5 tashabbus doirasida turli xildagi sport o'yinlari tashkil etib talaba yoshlar bilan birgalikda stol tennis voleybol hamda shaxmat kabi oyinlar tashkil etildi.



Bugun erta tongdan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sport vazirligi, Yengil atletika federatsiyasi, "UZINFOCOM" MCHJ, Talabalar sporti assotsiatsiyasi hamkorligida tashkil etilgan "Talaba-yugur" sport musobaqalarida universitet rektori Obidjon Xamidov boshchiligidagi universitet jamoasi ham ishtirok etdi.

"Sport oyligi" doirasida tashkil etilayotgan mazkur tadbirlar yoshlarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash, sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, shuningdek, talabalarning sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida tashkil etildi. Musobaqa talabalar o'rtasida sportga bo'lgan muhabbatni kuchaytirish, ular o'rtasida do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

